



OLIJ TA'LIM MUASSASALARIDA MUSTAQIL TAYYORGARLIKNI SAMARALI TASHKIL ETISHNING STRATEGIYALARI

Atamatov Abduxalil Salomovich

*Mehnat va ijtimoiy munosabatlar akademiyasi o'quv ishlari bo'yicha birinchi
prorektor, pedagogika fanlari doktori DSc, dotsent*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida talabalarning mustaqil tayyorgarligini samarali tashkil etishning strategiyalari o'rganiladi. Mustaqil tayyorgarlik talabalarga ilmiy va amaliy faoliyatni tashkil etish, o'z-o'zini boshqarish, va o'quv jarayonida faol ishtirok etish imkoniyatlarini yaratadi. Bunda, zamonaviy metodlar, raqamli texnologiyalar, interaktiv resurslar va hamkorlik platformalarining o'qish jarayoniga qo'shgan hissasi alohida ko'rib chiqiladi. Shuningdek, o'qituvchilarning mustaqil tayyorgarlikni qo'llab-quvvatlashdagi roli, talabalar bilan samarali aloqa o'rnatish va natijalarni monitoring qilish masalalari muhokama qilinadi. Mavzu ta'lim sifatini yaxshilash, talabalar kompetensiyalarini rivojlantirish va ularga kasbiy tayyorgarlikni oshirish yo'lidagi strategiyalarni ishlab chiqishning dolzarbligini ta'kidlaydi.*

Kalit so'zlar: *mustaqil tayyorgarlik, o'quv strategiyalari, ta'lim sifatini oshirish, raqamli texnologiyalar, interaktiv resurslar, kasbiy tayyorgarlik, o'qituvchi roli, talabalar faolligi, o'quv jarayoni, kompetensiya.*

Oliy ta'lim muassasalarida Mustaqil tayyorgarlikning afzalliklaridan biri shundaki, talaba o'quv dastur va darsliklardan tashqari o'z mutaxassisligiga oid bilimlarni izlab, boyitishi mumkin. Bu esa, o'z navbatida, tashabbuskor, kreativ va ijodkor kadrlarning shakllanishiga va tavakkalchilik sharoitida o'z g'oyalarini amalga tatbiq eta oladigan mutaxassis sifatida tadbirkorlik faoliyatini yuritishga olib keladi. Mustaqil ta'lim talabalar o'rtasida ijobiy raqobatni keltirib chiqaradi. Bir-biridan o'rganib, aqli, kuchi va vaqtini foydali ishlarga yo'naltiradi. Turli tanlovlarga tayyorgarlik ko'rish, zamonaviy axborot vositalar yordamida qisqa kurslarda ta'lim olish, "start-up"larda qatnashish va g'oliblikka intilish, ilmiy-ijodiy ko'rgazmalarda qatnashishda talabalar iste'dodining o'rganilmagan qirralarini ochadi. Talabaning o'ziga ishonchi, aql-zakovati, qobiliyati ortadi va o'z-o'zini tarbiyalash yoshlarning shaxs sifatida kamol topishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu xarakter xususiyatlarini barqarorlashtirish, ayniqsa, kuchli irodali fazilatlarni mustahkamlash, o'zini-o'zi boshqarish kabi fazilatlarni yaxshilashni o'z ichiga olgan holda kasbiy faoliyatini muvaffaqiyatli yuritishga yordam beradi. Shuningdek, atrof-muhitdagi



narsa va hodisalarga befarq munosabatda bo'lmashlikka, ularni to'g'ri baholay olishga, Mustaqil fikrini bayon etishga, ilmiy g'oyalarni shakllantira olishga, tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'ya olishga, hamkorlar bilan munosabatlarni to'g'ri olib borishga, bozorni tahlil qilishga, mahsulot yoki xizmatni kreativ yondashgan holda reklama qilishga, mijozlarni jalb eta olishga va raqobatbardosh bo'lishga hamda tavakkalchilik qila olishga yordam beradi. Mustaqil ta'lim oliy ta'lim muassasalarining o'quv reja va dasturiga muvofiq tashkil etilgan bo'lsa-da, talabalarga ularni amaliyotda qo'llash orqali ko'zlangan natijalarga erishish uchun keng va chuqur bilimga ega bo'lish imkonini beradi. fikrimizcha, mustaqil tayyorgarlik orqali bilim olish yoshlarni ertangi kunning murakkab muammolariga osongina javob topishga omil bo'lib xizmat qiladi. Oliy ta'lim muassasalari o'quv reja va dasturlarida yoshlarning mustaqil bilim olishi aniq belgilab berilgan, bu esa bilimlarni o'zlashtirishda izchillik va uzluksizlikni yanada takomillashtiradi. Ayrim hollarda umumiy o'rta ta'limdagi va professional ta'limdagi tartiblar oliy ta'lim tizimidagidan farq qiladi.

Kasbiy faoliyat subyekting maqsadi mustaqil ravishda belgilab qo'yilgan, harakatlar va jarayonlar rejalashtirilgan va amalga oshirilgan, olingan natija va maqsad bilan bog'langan. Talabani mashg'ulotdagi subyektiv pozitsiyasi amaliy faoliyatda tajribani shakllantirish va uning asosida malakalarni egallashning asosiy shartiga aylanadi. Bu, o'z navbatida, o'quv jarayonini o'quv komponenti nuqtayi nazaridan tegishli ravishda qayta tashkil etishni, o'quv-uslubiy hujjatlarni takomillashtirishni, yangi axborot va ta'lim texnologiyalarini joriy etishni, mustaqil ta'limning apparat va dasturiy ta'minotini yaratishni, o'z-o'zini rivojlantirishning yangi texnologiyalarini talab qiladi. Shu munosabat bilan o'qituvchilar faoliyatining bir qismi sifat jihatidan o'zgarib bormoqda, bu ularning shaxsiy rejalarida o'quv va o'quv-uslubiy ishlar nuqtayi nazaridan o'z aksini topadi. Talabalar mustaqil tayyorgarlikning ahamiyati ortib borayotgan bir sharoitda o'qituvchi va talaba faoliyati yangi mazmun bilan to'ldiriladi. O'qituvchining roli talabani o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini tarbiyalash va innovatsiya yaratish qobiliyatini shakllantirish orqali tadbirkorlik faoliyatini yuritishga imkon beruvchi Mustaqil ta'limni tashkil etishdan iborat. Talabani o'rni – o'qituvchi rahbarligida ta'lim jarayonida mustaqil ravishda kasbiy kompetensiyalarni egallash, muammoni shakllantirish va uni hal qilishning eng to'g'ri yo'lini topishga hamda kasbiy faoliyatni amalga oshirishda yumshoq ko'nikmalar foydalana olishga qodir bo'lgan ijodkor shaxs bo'lishdan iborat. Mustaqil o'quv faoliyati — talaba o'qituvchining bevosita yordamisiz va ko'rsatmasisiz, ishning tartibi va aniqligi to'g'risidagi shakllangan g'oyalarga asoslanib, yakka tartibda yoki guruhda bajaradigan o'quv faoliyat turi.





Talabalarining Mustaqil tayyorgarlik usullari quyidagilardan tashkil topgan:

- yagona obyektlarni kuzatish (talaba va o'qituvchi);
- qiyosiy analitik kuzatishlar;
- ta'lim dizayni (darslar, sinflar);
- tarbiyaviy va kasbiy vazifalarni hal etish;
- turli axborot manbalari bilan ishlash;
- turli zamonaviy vositalar yordamida ishlash
- tadqiqot faoliyati.

Talabaning mustaqil ishini tashkil etish va amalga oshirish maqsadi — shakllangan kasbiy kompetensiyalarga ega bo'lgan mutaxassisni kasbiy faoliyatini Mustaqil yurita olish bilan mos kelishi kerak.

Oliy ta'lim muassasalari talabasining Mustaqil ishini tashkil etish va amalga oshirish vazifalari quyidagicha:

- talabaning olgan kasbiy faoliyatiga oid nazariy bilimlari va amaliy ko'nikmalarini tizimlashtirish va mustahkamlash;
- tadbirkorlik faoliyatiga oid nazariy bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish;
- talabalarining bilim qobiliyati va faolligini rivojlantirish: ijodiy tashabbus, tavakkalchilik, Mustaqillik, mas'uliyat va tashkilotchilik;
- Mustaqil fikrlash, o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini takomillashtirish va o'zini o'zi anglash qobiliyatlarini shakllantirish;
- tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirish orqali start-up loyihalarni shakllantirish va amaliyotga joriy etish.

Mustaqil ta'lim-bu talabaning Mustaqil faoliyati bo'lib, o'qituvchining uslubiy rahbarligi va nazorati bilan, lekin uning bevosita ishtirokisiz amalga oshiriladigan jarayondir.

Zamonaviy oliy ta'lim tizimida talabalarni tayyorlash uchun ko'rsatilgan talab ularni zamonaviy mehnat bozorida raqobatbardosh qiladi. Shu munosabat bilan talabalarining mustaqil tayyorgarligi tobora muhim ahamiyat kasb etib, ularda zarur tadbirkorlik bilimlarni izlashda turli axborot vositalaridan foydalanishga tayyorgarligi va qobiliyatini shakllantirish uchun sharoit yaratmoqda.

Oliy ta'lim dasturi talabaga nimani bilishi va nima qila olishi kerak bo'lgan narsadan kelib chiqadi, o'qituvchi esa real vaziyatdan, talabalarining haqiqatda bilishi va nimaga qodirligidan kelib chiqadi. Binobarin, oldimizda ikki tomonlama, biroq tabiatan bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan vazifa turibdi – bir tomondan, talabaning tanlagan kasbi bo'yicha kognitiv qiziqishlarini rivojlantirish, uni bilimning yangi pog'onasiga ko'tarish, o'z ixtiyorida bo'lgan barcha imkoniyatlardan foydalanish,



boshqa tomondan, fundamental bilimlar uchun tushunarli, foydalanish mumkin bo'lgan materialni yaratish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Meskon M.X., Albert M., Xedouri F. Основы менеджмента.- М.:Дело, 1998.- 799 s.
2. Osenka fizicheskogo i nervno-psixicheskogo razvitiya detey rannego i doskolnogo vozrasta / Sost. N.A. Notkina, L.I. Kazmina, N.N. Boyno-vich.- SPb.: Aksident, 1999.- 32 s.
3. Sh.E. Kurbonov, E.Seytxalilov Ta'lim sifatini boshqarish.: "Turon-Iqbol": 2006. – 592 bet.
4. Valiyeva F.R. Metodologicheskiye osnovy obespecheniya sistemnosti i preemstvennosti v protsesse podgotovki spetsialistov. Dissertatsiya doktora filosofskix (PhD) pedagogicheskix nauk. – T.: 2020. – 48 b
5. Valieva F. R. The importance of educational content in preparation of competative personnels. 2 nd International Conference BRIDGE TO SCIENCE: RESEARCH WORKS San Francisco, USA February 28, 2018 121-122 list http://doi.org/10.15350/L_2/3
6. Kurbonov Sh.Razvitiye informatsionnogo prostranstva sistema nepreryvnogo obrazovaniya (Metodicheskaya razrabotka). Tashkent, TGIV, 1998, 3,35 p.l